

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ENG QADIMGI BAYOZ NAMUNALARI VA ULARNING O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTINI O'RGANISHDAGI O'RNI

Shukurova Zilola

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, dotsent.

e-mail: zilolashukurova@7616gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-8766-8833>

Annotatsiya.

Ushbu maqolada o'zbek mumtoz adabiyotida muhim o'rin tutgan bayozlar va ularning ilmiy ahamiyati haqida so'z boradi. Maqolada bayozlarning eng qadimgi namunalari, yurtimizda saqlanayotgan nodir bayozlar, ularning tuzilishi hamda o'ziga xos xususiyatlari haqida ilmiy tavsif berilgan.

Kalit so'zlar: bayoz, she'r, she'riy to'plam, qo'lyozma, toshbosma.

ДРЕВНЕЙШИЕ ОБРАЗЦЫ БАЯЗОВ И ИХ РОЛЬ В ИЗУЧЕНИИ УЗБЕКСКОЙ КЛАССИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Шукuroва Зилола

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы имени Алишера Навои, доцент.

Аннотация.

В статье рассматриваются баязы, занимающие важное место в узбекской классической литературе, и их научное значение. Дается научная характеристика древнейших образцов баязов, редких баязов, хранящихся в Узбекистане, а также рассматриваются особенности их структуры и своеобразные черты.

Ключевые слова: баяз, стихотворение, поэтический сборник, рукопись, литографическое издание.

THE EARLIEST EXAMPLES OF BAYAZ AND THEIR ROLE IN THE STUDY OF UZBEK CLASSICAL LITERATURE

Shukurova Zilola

Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature, Associate Professor.

Abstract.

This article examines *bayaz* collections, which occupy an important place in Uzbek classical literature, and discusses their scholarly significance. It provides a scholarly description of the earliest examples of *bayaz*, rare *bayaz* manuscripts preserved in Uzbekistan, as well as their structure and distinctive features.


Keywords: bayaz, poem, poetry collection, manuscript, lithographic edition.

Kirish. Jahon ilm-fanida har bir millat tarixi, madaniyati, tafakkuri to'g'risida ma'lumot beruvchi birlamchi qo'lyozma manbalarni tadqiq qilishga e'tibor tobora kuchaymoqda. Chunki ajdodlar qoldirgan yodgorliklarni aniqlash, ilmiy iste'molga kiritish orqali millat tarixini o'rganish va milliy o'zlikni anglashga imkoniyat ortadi. Bunday mas'uliyatli vazifani amalga oshirishda dunyo tajribasida sinalgan tadqiqot usullaridan foydalanib, har bir matn va manbaning yaratilish tarixi, o'rni, sharoiti va unga ta'sir qilgan omillarni aniqlash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zero, har bir adabiy matn davr ehtiyoji, adabiy muhitlar mahsuli sifatida yuzaga chiqar ekan, adabiyotning rivojlanish qonuniyatlarini ham o'zida namoyon etishi bilan qimmatlidir. Shu ma'noda bayozlarni o'rganish va taraqqiy etish omillarini aniqlash, adabiy ta'sir va uning bayozlardagi ifodasini ochib berish, xonliklar davri adabiy muhiti, ularning qo'shni xonliklar bilan adabiy aloqalari, bayozlarning adabiy-madaniy muloqot almashinuv jarayoniga ta'siri va unda shoirlarning faollik darajasini o'rganish muhimdir. Bayozlar misolida xonliklar davri adabiyotidagi shoirlarning ijtimoiy-siyosiy hayotda tutgan o'rni, adabiy muloqotga ta'sirini o'rganish o'zbek mumtoz adabiyotini yanada boyitishda ulkan hissa qo'shadi.

O'rta Osiyoda bayozlarning kirib kelishi arab adabiyoti bilan bog'lansa-da, uning Movarounnahr hududlarida aynan qachon paydo bo'lgani haqida hozircha aniq bir ma'lumot yo'q, biroq "Toshkent, Leningrad, Dushanbe qo'lyozma fondlaridagi ayrim qo'lyozma bayozlar O'rta Osiyo va Xurosonda XV asr o'rtalarida ham bayoz tuzish an'anasi bo'lganligidan dalolat beradi" [1; 26-b]. Ular aynan bayoz termini bilan nomlanmagan bo'lsa-da, tuzilishiga ko'ra bayoz xususiyatlariga mos tushadi. Yurtimiz kutubxonalarida saqlanayotgan eng qadimgi bayoz 964/1556-yilda tuzilgan "Gulshani Eram" (ارم گلشن) [348; 2-qo'lyozma] nomi bilan ko'chirilgan. She'riy to'plamlarni aynan bayoz termini bilan nomlash XVI asr oxiri - XVII asr boshlarida tuzilgan 29-inventar raqamli qo'lyozma bayozda uchraydi. Keyinchalik bayozlar tarkibidagi janrlar asosida nomlangan. Masalan: "Majmuati tarji'at va qasoid", "Ash'or muntaxaba", "Majmuayi g'azaliyot", "Ash'ori muxtalifa", "G'azalon va qasoid muxtalifa", "Ash'or", "Bayozi Feruz" kabi.

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy jarayonlar bilan bog'langan, qat'iy tuzilish prinsipiga ega bo'lmagan, tuzuvchining yoki buyurtmachining xohish-istagiga ko'ra shoirlarning sara ijodidan tuzilgan bayozlarning qo'lyozmalar fondidan bir qancha nusxasini topish mumkin. Mumtoz she'riyat bilan yangi davr adabiyotini bog'lovchi ushbu bayozlar sekin-astalik

bilan she'r ixlosmandlari qalbidan joy olib, har bir xonadonning ma'naviy mulkiga aylandi. Shu jihatdan "bu majmua virtual she'riy musobaqa maydoni sifatida ham xizmat qilishi mumkin" [2; 29-qo'lyozma]. Bu she'riy to'plamlarning ko'pchiligi bugungi kunda nafaqat O'zbekiston, balki ko'plab xorijiy davlatlarning kutubxona va muzeylarida saqlanadi.



1-rasm

Birgina Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida bayozlarning bir necha yuzdan ortiq qo'lyozma va toshbosma nusxalari mavjud. M. Hamidova bayozlarni tadqiq qilish asnosida 1969-yilgi statistika bo'yicha shunday yozadi: "O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida to'rt yuzdan ortiq qo'lyozma bayoz bor. Shulardan 230 tasi (biz tadqiqot doirasiga kiritganimiz) o'zbek adabiyotiga bevosita aloqador bo'lib, o'zbek, fors-tojik, qisman arab tilidagi she'rlardan tashkil topgan. Lekin asosiy o'rinni o'zbek, qisman fors-tojik tilidagi she'rlar egallaydi" [3; 11-b].

Bugungi kunda bu statistik raqamlar o'zgargan. Mustaqillik yillarida qo'lyozma manbalarni asrab-avaylash va kelajak avlodga yetkazish to'g'risidagi bir qator qonun va qarorlar qabul qilingandan so'ng ushbu raqamlar ko'rsatkichi yanada oshgan. 2023-yil dekabr oyi holatiga ko'ra, ushbu kutubxonada 845 dan ortiq qo'lyozma bayozlar borligi

aniqlandi. Shundan "Asosiy fond" bo'limida saqlanuvchi bayozlar soni 510 dan ortiq bo'lib, XVII asrga tegishli bo'lgani 3 ta, XVIII asrga oid 5 ta, XIX asrda yaratilganlari 129 ta, XX asrda yozilgani 166 ta, yozilgan yili noma'lum bayozlar 207 tani tashkil qiladi. Hamid Sulaymon fondi katalogida esa jami 335 ta qo'lyozma bayoz saqlanib, shulardan XVI asrda 1 ta, XVII asrda 1 ta, XVIII asrga oid bayozlar uchramadi, XIX asrga tegishli bayozlar 29 ta, XX asrga tegishli bayozlar 20 ta, yili ko'rsatilmagan bayozlar 284 tani tashkil qiladi. Bu raqamlar 1969-yilgi bayozlar sonidan ikki baravar ko'proq aniqlanganini tasdiqlaydi va bundan keyin ham ko'payib borishi shubhasiz.

Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyida esa jami 92 ta qo'lyozma bayoz saqlangan bo'lib, shundan XVII asrga oid 1 ta, XIX asrga oid 75 ta, XX asr boshiga oid 7 ta, tuzilgan vaqti noma'lum bayozlar 9 tani tashkil qiladi.

Bayozlar o'zining tarixiy shakllanish davrida shakl, mazmun, tuzilishiga ko'ra bir nechta bosqichlarni bosib o'tib, doimiy taraqqiy etib borgan. Chunki kitobxonlarga o'zi istagan shoirlarning eng sevimli she'rlarini bir to'plamda jamlashi qulay va foydali bo'lgan. "Avvallari bir yoki bir necha (Sa'diy, Hofiz, Firdavsiy, Xisrav Dehlaviy va h.k.) shoirning mukammal va mashhur she'rlarini bir kitobga to'plab tarqatish, o'rganish nazarda tutilgan holda boshlangan bayoz (oqqa ko'chirish) tartib berish an'anasi sekin-asta asrlar, zamon, sharoit, istak-orzularga ko'ra murakkablashib, yangi mazmun va mundarijalari, xilma-xil ko'rinishlari bilan har davrning o'z tamg'asi bosilgan holatlarigacha yetib keldi" [4; 30-b]. Ana shu o'zgarishlardan kelib chiqib, bayozchilik an'anasining shakllanishi va unga xos bo'lgan muhim xususiyatlar quyidagi davrlarga bo'lib o'rganildi.

Ma'lumki, O'rta Osiyoda yaratilgan bayozlarning hozircha bizga ma'lum bo'lgani va eng qadimiy hisoblangani XV asr o'rtalarida temuriylar davriga tegishli C100 (249) raqami ostida saqlanayotgan 867/1442-yilda tuzilgan qo'lyozma bayozdir. Unda 22 ta Eron, Hindiston va O'rta Osiyo shoirlari kiritilgan bo'lib, fors-tojik tilidagi g'azal, qit'a, tarjebandlardan iborat [5; 502-b.]. Ushbu to'plamga kiritilgan she'riy to'plamlarning barchasi "*Majmual ash'or*" [5; 499-503-b.] nomi bilan qayd qilingan. Bu davrda tuzilgan bayozlarning muhim xususiyati ularda fors-tojik tilining ta'siri kuchli bo'lganligi sababli ham turkiy tildagi she'rlar uchramaydi. A. Erkinov bayozlarni o'rganish asnosida bu masalaga quyidagicha fikr bildiradi: "Eng dastlabki turkiy misolning XVII asr bayozida berilgani XV-XVI asrlardagi bayozchilik an'analari va majmualar uchun tanlanadigan she'rlar tili masalasida alohida e'tibor zarurligini ko'rsatadi. Aslida XVI asrdan boshlab, fors tilidagi adabiyot tarqalgan territoriyalarda mahalliy aholi ona tiliga e'tibor kuchaydi" [6; 228-229-b.]. Sekin-astalik bilan yuz bergan bu jarayon avval xalq muloqotida, keyin esa bayozlarda o'z ifodasini topa boshladi.

Temuriylar davrida mamlakat ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy, adabiy jihatdan taraqqiy etib, ilm-adab ahlining ijod qilishida har jihatdan qulay shart-sharoitlar yaratilgan. She'riyat ahli o'tmishda yashab o'tgan shoirlarning ijodini o'rganib, ilhomlanib, ularga tatabbu' hamda tazminlar bog'lashgan. Ana shunday qizg'in adabiy muhit bayozlarning yaralishiga sabab bo'lgan. Shoirlar ijodidan iborat ushbu guldastani tuzishda, eng avvalo, Jomiy, Navoiy, Bedil, Hofiz Sheroziy kabi shoirlarning ijodi yetakchilik qiladi. Devondan farqli o'laroq, bir vaqtning o'zida bir nechta mashhur shoirlarning eng sara, eng sevimli she'rlaridan iborat to'plamning yuzaga kelishi adabiyot tarixida muhim yangilik bo'lgan.

Qadimiyligi bo'yicha hozircha ikkinchi o'rinda turadigan bayoz XVI asrga tegishli bo'lib, Abu Rayhon Beruniy nomidagi qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan 384-raqamli qo'lyozmadir. U 964/1556-yilda Muhammad Husayn al-Husayniy tomonidan tuzilgan "*Gulshani Eram*" (ارم گلشن) asari bo'lib, 46 varaqdan iborat. Unda Sa'diy, Husrav, Hasan, Ismat, Ozariy, Salmon kabi shoirlarning fors-tojik tilidagi ijodi o'rin olgan. Ushbu bayoz kutubxonada nodir kitoblar sirasiga kiritilganligi sababli uning elektron nusxasi ko'rildi. Bayozning zarvaraq sahifasi boshqa bayozlarda uchramaydigan murakkab naqshda chizilgan. U Navoiy asarlariga chizilgan zarvaraq naqshlarini eslatadi. Uning ostida kvadrat shaklidagi naqsh chizilgan. Kitobning varag'i olachipor, ya'ni pushti va havorangning aralashmasidan iborat. Qog'oz hoshiyasi ko'k, tillarang va shu kabi 3-4 xil ranglar bilan hoshiyalangan. Har ikki bayt qiya usulda yozilib, keyingi

ikki misra to'g'ri qilib yozilgan va mana shu misralarning har birining ochiq joylarida ko'k va tillaranga naqsh ishlangan. G'azal yozilgan matnning ichi esa och havoranga. Bunaqa matnga go'zal zeb berish holati hali biror qo'lyozmada kuzatilmadi. 1-sahifadagi naqshning ichida "Ibn Mahmudga Gulshan" deb yozilgan. Odatda, naqshning ichiga basmala yozilgan bo'lardi. Bunda esa yuqoridagi so'zlar bitilgan. Naqshlar kitobning oxirgi sahifasigacha chizilgan.

Xuddi shunday go'zal va betakror naqshlari bilan boshqa qo'lyozmalardan ajralib turuvchi bayozlardan biri xorijda saqlanayotgan GPB Dorn 326-raqamli bayozdir. Ushbu bayozni shaxsan o'zimiz ko'rmaganimiz sababli M. Hamidovning fikrlariga tayanamiz. U ushbu to'plam haqida: "Leningraddagi Saltikov-Shchedrin nomli Davlat xalq kutubxonasi Sharq qo'lyozmalari bo'limida hijriy 1590-yilda tuzilgan GPB Dorn 326-raqamli bayoz saqlanyapti. Uning nafis va go'zal xati, kitobat san'ati, yuksak did bilan ishlangan miniatyuralari bu davrda bayoz tuzish ishi nihoyatda yuksak bosqichga ko'tarilganini bildiradi" [3; 20-bet], – deya keltirgan. Yuqoridagi fikrlardan shu ma'lumki, bayoz tuzishda XV–XVI asrlarda alohida tayyorgarlik va mas'uliyat bilan yondashilib, bu uning kitob bezaklaridan tortib tanlangan shoirlargacha – barchasida ko'rinadi.

Uchinchi o'rinda XVI asr shoirlari haqida ma'lumot beruvchi 234-raqamli bayoz turadi. Ushbu bayoz "Majmuati ash'or" deb nomlanib, Jomiy, Ansoriy, Ohiy, Afg'on, Xo'ja Hasan, Hisrav, Sa'diy, Salmon, Shohiy, Shavqiy, Attor, G'azzoliy, Qosim Kotibiy, Kamol, Mag'ribiy kabilarning she'rilaridan iborat.

Keyingi bayoz XVII asrga tegishli "Majmual g'aroyib" deb nomlangan bo'lib, 30 ta shoirning ijod namunalari, Muhammad Yusuf shogirdining so'fiy shoirlar ijodida uchraydigan ayrim tushunchalarga tavsifi hamda arabcha-forscha so'zlardan tuzgan lug'ati berilgan. Demak, bu davrdan bayozlar tuzilishi va mazmuniga ko'ra yangi bosqichga ko'tarila boshlagan. Bunda nafaqat o'tmish shoirlar, balki bayoz tuzuvchiga zamondosh bo'lgan shoirlarning ijodi, lug'at va izohlarning kiritilishi bayoz tuzish an'anasida yangicha yondashuv kirib kelayotganini dalillaydi.

Temuriy shahzodalar o'rtasida muttasil davom etgan taxt talashishlar natijasida saltanat zaiflashib, shahzodalar qo'lida qolgan hududlar uch xonlikka bo'linib ketdi. Uning qanday asoratlarga olib kelgani tarixdan barchamizga yaxshi ma'lum. Hududlardagi parokandalik adabiyotda ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Biroq shunga qaramay, adabiyot to'xtamadi, alohida xonlik sifatida ajralib chiqqan mintaqalar adabiy muhitida o'ziga xoslik aks eta boshladi. Har bir xonlikda alohida adabiy maktab shakllandi. Bu yerda yaratilgan adabiy muhit natijasida xilma-xil bayozlar tuzilib, har bir hududga xos bo'lgan an'analar shakllandi. "Matnchilgimiz tarixining uch xonlik davrida (XVII–XIX asrlar) bayoz tuzish an'anasi nihoyatda avj oldi" [7; 62-bet]. Xonliklardagi adabiy muhit va bayozchilik rivoji haqida keyingi fasllarda alohida to'xtalganimiz bois ortiqcha so'zlamadik.

Xulosa qilib aytganda, bayozlarning kirib kelishi O'rta Osiyo adabiyot muxlislari uchun muhim adabiy hodisa bo'lib, uning ko'plab nusxalarda yaratilgani ma'lum. Yurtimizda saqlanayotgan va yildan-yilga boyib borayotgan kutubxona fondlarida bayozlarning turli davrda ko'chirilgan nusxalari qo'shilmoqda. Bu esa bayozlar bo'yicha tadqiqotlar ko'lamini yanada kengaytirish va chuqur tadqiq qilishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Is'hoqov Yo. Bayoz va bayozchilik tarixi // *O'zbek adabiyoti tarixi masalalari*. – Toshkent: Fan, 1976. – B. 78–100. – foydalanilgan bet: B. 82. URL: [Ziyouz – bibliografik tasdiq](#)
2. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti. Asosiy fond, inv. № 348, URL: [O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi – Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi](#)
3. Hamidova M. *Qo'lyozma bayozlar – adabiy manba*. – Toshkent: Fan, 1981. – B. 11. URL: [Anglisticum – bibliografik tasdiq](#)
4. Abdullayev V. A. *O'zbek adabiyoti tarixi*. – Toshkent: O'qituvchi, 1967. – B. 30. URL: [Vohid Abdullayev – asarlari haqida ma'lumot](#)
5. Акимущкин О. Ф., Кушев В. В., Миклухо-Маклай Н. Д., Мугинов А. М., Салахетдинова М. А. *Персидские и таджикские рукописи Института народов Азии АН СССР: краткий алфавитный каталог*. – Ч. 1 / под ред. Н. Д. Миклухо-Маклая. – М.: Наука, Главная редакция восточной литературы, 1964. – 633 с. – С. 502. URL: [Российская национальная электронная библиотека – katalog](#)
6. Erkinov A. *Navoiyni anglash sari*. – Ankara: Akçağ Yayınevi, 2021. – B. 228–229. URL: [Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti – "Navoiyni anglash sari"](#)
7. Sodiqov Q. P. *Matnshunoslik va manbashunoslik asoslari*. – Toshkent: TDSHI, 2017. – B. 62. URL: [TDSHU elektron kutubxonasi – Matnshunoslik va manbashunoslik asoslari](#)